



ILMIY ELEKTRON JURNAL

TA'LIM TASHKILOTLARIDA ELEKTRON KUTUBXONALARDAN FOYDALANISH

Tursunova Sadoqat Ravshan qizi

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti Kechki ta'lim va magistratura fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotation

Bugungi kunda ta'lism tizimi jahon bo'ylab zamonaviy texnologiyalar bilan tez sur'atlarda rivojlanmoqda. Bunda elektron kutubxonalar muhim o'rinn egallaydi. Elektron kutubxonalar, o'quvchilar va talabalarga o'qish, ilmiy tadqiqotlar, adabiyotlar va resurslarga qulay va tezkor kirishni ta'minlash bilan birga, ta'lism sifatini oshirishda katta rol o'ynaydi. Shu bois, ta'lim tashkilotlarida elektron kutubxonalardan foydalanish zamon talabiga javob beruvchi muhim bir o'rinn tutadi.

Annotation

Nowadays, the education system is rapidly developing worldwide with modern technologies. In this process, electronic libraries play a significant role. Electronic libraries not only provide students and learners with convenient and quick access to reading materials, scientific research, literature, and resources, but also play a major role in improving the quality of education. Therefore, the use of electronic libraries in educational institutions occupies an important place in meeting the demands of the modern era.

Kalit so'zlar

Zamonaviy texnologiyalar, Elektron kutubxona, SQL server, Windows Form, Login va parol.

Keywords

Modern Technologies, Electronic Library, SQL Server, Windows Form, Login and Password.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi "Ta'lim tizimida raqamli o'qitish usullarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Ilm-fan va ta'limni rivojlantirish orqali inson kapitalini rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi

farmonlarida ta'linda raqamli texnologiyalarni kengaytirish, jumladan, elektron kutubxonalar tashkil etish va ularni rivojlantirish hamda ilm-fan sohasida raqamli texnologiyalardan foydalanishni rivojlantirish asosiy yo'naliishlardan biri sifatida qayd etilgan[1,2]. Ta'lim resurslari va elektron kutubxonalar orqali bilimga onlayn kirishni kengaytirish va bu orqali o'quv jarayonlarini takomillashtirish belgilangan. Zamonaviy ta'lim tizimi texnologiyalar bilan integratsiya qilishni davom ettirmoqda. Ta'lim tashkilotlarining raqamli transformatsiyasi, ayniqsa, elektron kutubxonalar orqali amalga oshirilmoqda. Elektron kutubxonalar — bu foydalanuvchilarga internet orqali turli xil ilmiy va o'quv resurslariga kirish imkoniyatini taqdim etuvchi tizimlar bo'lib, ular ta'lim jarayonini yanada samarali, qulay va innovatsion qiladi. Ular o'quvchilarga va talabalarga kerakli materiallarga tezkor va qulay kirishni ta'minlab, ta'lim sifatini oshiradi.

Elektron kutubxonalar nafaqat kitoblar va o'quv materiallarini, balki ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar, video va audio materiallarini ham o'z ichiga oladi, bu esa ta'limning barcha jabhalarida resurslardan keng foydalanishga imkon yaratadi. Bugungi kunda ta'lim muassasalarida elektron kutubxonalardan foydalanish nafaqat o'quv materiallarga kirish, balki ilmiy izlanishlar olib borish, global axborot tizimlari bilan integratsiyalashish imkoniyatlarini ham ochadi. Shuningdek, elektron kutubxonalar ta'lim tashkilotlarining resurslaridan foydalanishni qulaylashtirib, o'qituvchilarga va talabalariga ilmiy ishlarini olib borishda yordam beradi.

Shu bois, ta'lim tashkilotlarida elektron kutubxonalardan foydalanish nafaqat ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi, balki o'quvchilarga va ilmiy tadqiqotchilarga zamonaviy bilimlarni o'rganish va izlanishlar o'tkazish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Elektron kutubxonalarning rivojlanishi va ularni ta'lim tizimiga joriy etish, kelajakda ta'lim sifatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Raqamli texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim muhitini yaratish sifatli o'qitish jarayonini tashkil etish imkonini beradi [3], shuningdek, raqamli resurslarni qo'llash talabalarining kognitiv salohiyatini oshirishga, ularning mustaqilligini oshirishga, motivatsiyani hisobga olgan holda, o'quv jarayonlarini har tomonlama farqlashni ta'minlashga yordam beradi [4]. Tadqiqotchilar tomonidan raqamli platformalar, ta'lim jarayonini avtomatashtirish va onlayn ta'lim resurslarini yaratish, raqamli o'quv kontentlarini yaratish va boshqarishda elektron ta'lim vositalarini joriy qilish orqali ta'lim sifatini oshirish, pedagogik texnologiyalarni raqamlashtirish, raqamli ta'lim platformalarining imkoniyatlarini tadqiq qilishda elektron kitoblar, masofaviy o'quv platformalari va onlayn testlash tizimlarini ta'limga integratsiyalash, raqamli baholash tizimlarini rivojlantirish, jumladan, elektron kutubxonalardan foydalanish bo'yicha tadqiqotlar olib boradilar.

Elektron kutubxonalar ta'lim tizimining samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ular o'quvchilarga va talabalarga ilmiy adabiyotlarga tez va qulay kirish imkoniyatini taqdim etadi. Bu mavzuda bir qator ilmiy adabiyotlar mavjud bo'lib, ularning har biri elektron kutubxonalarning ta'limda qanday ishlashi, foydalari va qiyinchiliklariga doir ma'lumotlar beradi. Lynch o'zining ishida elektron kutubxonalar ta'lim tizimida axborot resurslarini raqamli formatda taqdim etishning ahamiyatini ta'kidlaydi. U raqamli kutubxonalar nafaqat materiallar va ilmiy

resurslarni taqdim etishda, balki o'quvchilarga yangi bilimlarni o'rganishda ham imkoniyat yaratadi, chunki ular juda keng qamrovli va tezkor izlanish imkoniyatlarini beradi.[5] Koller elektron kutubxonalarni ta'lif jarayonining ajralmas qismi sifatida ko'rib chiqadi. U elektron kutubxonalarning ta'lif sifatiga qanday ta'sir qilishi haqida batafsil fikr yuritadi. Muallifning fikricha, elektron kutubxonalar nafaqat ma'lumotlarni taqdim etadi, balki o'quvchilarga mustaqil izlanish qilish, ilmiy tadqiqotlar o'tkazish va yangi bilimlarni yaratish imkoniyatini yaratadi.[6] Coyle elektron kutubxonalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatidagi o'rnnini tahlil qiladi. U elektron kutubxonalarda mavjud bo'lgan ilmiy maqolalar, jurnallar va boshqa resurslarning o'quvchilarga ilmiy faoliyatni rivojlantirishda katta yordam berishini ko'rsatadi. Shuningdek, elektron kutubxonalar global miqyosda ilmiy almashuvni tezlashtirish va yangi tadqiqotlarni amalga oshirishda muhim vosita sifatida ishlataladi.[7] Baker & Green elektron kutubxonalarning ta'lif muassasalaridagi imkoniyatlari va muammolarini o'rganadi. Ularning ishida elektron kutubxonalarning foydalari ta'linda axborotlarni boshqarish, qidirish va taqdim etishdagi samaradorlikka bog'liq. Shuningdek, ular elektron kutubxonalarning samarali ishlashiga to'sqinlik qiluvchi texnik, kadrlar va moliyaviy muammolarni ham muhokama qiladi.[8] Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadi, elektron kutubxonalar ta'lif jarayonida nafaqat ilmiy resurslarga kirishni osonlashtiradi, balki o'quvchilarga o'z bilimlarini kengaytirish, ilmiy tadqiqotlar olib borish va yangi bilimlarni yaratish imkonini beradi. Biroq, bu jarayonni samarali amalga oshirish uchun elektron kutubxonalarning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi bir qator muammolar ham mavjud, jumladan, texnik infratuzilmaning zaifligi, malakali kadrlarning yetishmasligi va moliyaviy cheklovlar.

Elektron kutubxonalar nafaqat o'quvchilar uchun o'qish materiallarini taqdim etishda, balki ilmiy tadqiqotlarni olib borishda, mustaqil izlanishlar qilishda va global miqyosda ilmiy resurslar bilan almashishda ham muhim vosita hisoblanadi [9]. Elektron kutubxonalarning ta'limdagi roli nafaqat resurslarga tez va qulay kirish, balki o'quvchilarning ilmiy izlanishlar va o'qishdagi samaradorligini oshirishga yordam beradi [10]. Elektron kutubxonalarning foydalari shundaki, ular o'quvchilarga, talabalar va o'qituvchilarga, zarur bilimlarni olish va ta'lif jarayonini maksimal darajada samarali o'rganish imkonini beradi[11].

Biroq, elektron kutubxonalar tizimini ta'lif tashkilotlarida muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bir qator muammolarni hal qilish zarur. Bular orasida texnik infratuzilmaning zaifligi, malakali kadrlarning yetishmasligi, kutubxona resurslarini yangilash va moliyaviy cheklovlar mavjud. Shu bilan birga, elektron kutubxonalardan foydalanishning samaradorligini oshirish uchun texnologik infratuzilmani mustahkamlash, kadrlar malakasini oshirish va raqamli kutubxona resurslarini kengaytirish lozim.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda ta'lif tashkilotlarida elektron kutubxonalardan foydalanishning samaradorligini aniqlash, mavjud muammolarni aniqlash va takliflarni ishlab chiqish maqsadida sifatli va miqdoriy tahlil usullari uyg'unlashtirildi. Tadqiqotning metodologik yondashuvi har tomonlama tahlil va real holatni chuqur o'rganishga xizmat qilib, mavzuga ilmiy yondashuvni ta'minlaydi.

Tahlil va natijalar

1. Tadqiqot usullari

Ta'lim tashkilotlarida elektron kutubxonalardan foydalanishning samaradorligini tahlil qilish uchun quyidagi tadqiqot usullaridan foydalanish mumkin:

Kvantitativ tadqiqot: Elektron kutubxonalar tizimidan foydalangan o'quvchilarning samaradorligini o'lchash uchun so'rovlar va anketalar o'tkazish. Bu usul yordamida elektron kutubxonalardan foydalanishning ta'limda qanday ta'sir ko'rsatishi, o'quvchilarning qoniqish darajasi, foydalanuvchi ehtiyojlari haqida ma'lumotlar olish mumkin.

Sifat tadqiqoti: Ta'lim muassasalarida elektron kutubxonalar tizimidan foydalanayotgan o'quvchilar, o'qituvchilar va kutubxonachilar bilan intervyular o'tkazish. Ushbu metod yordamida tizimdan foydalanishning ijobiyligi va salbiy tomonlarini, shuningdek, elektron kutubxonalardan foydalanishga bo'lgan munosabatlarni aniqlash mumkin.

2. Ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish

Ta'lim tashkilotlaridagi o'quvchilar, o'qituvchilar va kutubxonachilarga elektron kutubxonalardan foydalanish tajribalari haqida savollar berish. Bu orqali o'quvchilarning elektron kutubxonalardan qanday foydalanayotgani, tizimlar qanday yaxshilanishi kerakligi haqida ma'lumotlar to'planadi.

Ta'lim muassasalarining elektron kutubxonalar bo'yicha mas'ul xodimlari, kutubxonachilar, o'qituvchilar va talabalar bilan intervyular orqali tizimning qanday samarali ishlayotganligi va mavjud muammolarni aniqlash.

3. Ma'lumotlarni tahlil qilish metodlari

Tavsiflovchi tahlil. So'rov nomasi va intervyu natijalarini umumlashtirish orqali elektron kutubxonalardan foydalanishning umumiyligi holatini tahlil qilish. Bu metod yordamida foydalanuvchilarning qoniqish darajasi, tizimning samaradorligi va uning ta'lim jarayonidagi roli aniqlanadi.


Maqsadli tahlil. Elektron kutubxonalardan foydalanishning ta'lim samaradorligiga ta'sirini o'rGANISH. Bu metod yordamida kutubxonalarning ta'limdagisi ta'siri va foydalanuvchilarning malakasi o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilinadi.

4. Elektron kutubxonalarini ta'lim tizimida samarali joriy etish uchun quyidagi takliflar va yechimlar beradi.

Texnik infratuzilmani takomillashtirishda internet aloqalari va tizim resurslarini mustahkamlash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish. Shu bilan bir qatorda, foydalanuvchilar uchun raqamli kutubxonalardan samarali foydalanish bo'yicha treninglar o'tkazish. Elektron kutubxonalarda mavjud bo'lgan ilmiy resurslar va ma'lumotlarni kengaytirish, yangi kontentlarni qo'shish.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, yaratilgan kutubxona modelimizda (asosiy obyekt sifatida kitoblar) boshqa obyektlarni bog'lagan holda kitob haqidagi to`liq ma'lumotga ega bo'lamiz (1-rasm).

Kitoblarning turlari va mavjudligi kutubxonalar uchun juda muhimdir. Kutubxonada barcha turdagи kitoblar, ularning avtorlari, janrlari va nashriyotlari haqida to'liq ma'lumot topish mumkin. Shuningdek, unda asosiy obyektlarni kutubxonadagi boshqa obyektlar bilan bog'laydi. Bunday holatda, elektron kutubxona ko'proq ma'lumot olish imkoniyatini beradi.



1-rasm. “Kutubxona tizimi” malumotlar bazasining SQL serverdagи ko’rinishi

Bu model orqali kutubxonaning turli xil operatsiyalari, masalan, kitob qidirish, kitob berish va qaytarish, yangi kitoblar qo’shish kabi jarayonlar avtomatlashtiriladi(2-rasm).



2-rasm. Kirish oynasi

Tizimni ishga tushurganimizda ekranda avtorizatsiya uchun Windows Formda Yaratib olgan oynamiz ochiladi. Bu oynada foydalanuvchi o’zining login va parolini kiritgan holda foydalanishi mumkun. Login va parol bazadagi ma'lumotlardan olinadi. Ushbu jarayon havfsizlik yuzasidan ham qo’llaniladi. Yuqorida aytib o’tilganidek bu tizimdan asosan 3 turdagи foydalanuvchilar foydalanishi mumkun. 2-rasmida ko’rsatilgani kabi login va parol yozilib “Login” tugmasi bosiladi.



3-rasm. Asosiy oyna

3-rasmida tizimning asosiy oynasi tasvirlangan. Bu oynaga kirgach foydalanuvchi oziga kerakli oynalarga o’tishi mumkin .

Xulosa

Ta'lim tashkilotlarida elektron kutubxonalardan foydalanish, zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylangan va ta'lim jarayonini samarali tashkil qilishda muhim vosita sifatida o'z o'rnnini topgan. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan elektron kutubxonalar nafaqat o'quvchilar va talabalar uchun, balki ilmiy tadqiqotchilar va o'qituvchilar uchun ham muhim axborot manbaiga aylangan. Ular, o'zining keng qamrovli resurslari va tezkor kirish imkoniyatlari bilan, ta'lim sifatini oshirishda katta hissa qo'shadi.

Kelajakda elektron kutubxonalar, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida, ayniqsa, ilmiy izlanishlar, talabalar va o'qituvchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratishda davom etadi. Ta'lim tashkilotlarida elektron kutubxonalardan foydalanishni yanada kengaytirish va samarali tashkil etish ta'lim sifatini oshirishga, o'quvchilarning bilim olishda muvaffaqiyatlarini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, elektron kutubxonalarning rivojlanishi va ularning ta'lim jarayoniga qo'shadigan hissasini kengaytirish, global ta'lim tizimi bilan integratsiyalashishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Elektron kutubxonalar, nafaqat resurslarni taqdim etish, balki yangi ilmiy izlanishlar olib borish va zamonaviy ta'lim tizimining global rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 6.04. 2021-yildagi "Ta'lim tizimida raqamli o'qitish usullarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi "Ilm-fan va ta'limni rivojlantirish orqali inson kapitalini rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi farmoni
3. Takamatsu, K., et al.: A new concept of ICT on eduinformatics in higher education. In: Yang, X.-S., Sherratt, S., Dey, N., Joshi, A. (eds.) Proceedings of Sixth International Congress on Information and Communication Technology. LNNS, vol. 235, pp. 693–700. Springer, Singapore (2022). https://doi.org/10.1007/978-981-16-2377-6_64
4. Baig, M.I., Shuib, L., Yadegaridehkordi, E.: E-learning adoption in higher education: a review. Inf. Dev. 38(4), 570–588 (2022). <https://doi.org/10.1177/0266669211008224>
5. Lynch, C. A. (2005). Digital Libraries and the Future of Libraries. The D-Lib Magazine, 11(1).
6. Koller, D. (2012). The Role of Digital Libraries in Education: A Global Perspective. Educational Technology Review, 9(2), 102-112.
7. Coyle, K. (2003). The Digital Library Landscape: Developments and Directions. The Journal of Academic Librarianship, 29(6), 315-320.
8. Baker, M. J., & Green, S. (2006). The Importance of Digital Libraries in Education. Journal of Library Science, 25(3), 45-52.
9. Gorman, G. E. (2003). The Digital Library: A Vision in the Making. Journal of Academic Librarianship, 29(5), 315-318.